IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

TURKIY SIVILIZATSIYA TILLARI RIVOJINING MUAMMOLARI (O‘RTATURK TILINI VA O‘RTABITIK YOZUV TIZIMINI YARATISH JIHATLARI)

Karimov Baxtiyor Raxmanovich
O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining yetakchi ilmiy xodimi,
falsafa fanlari doktori, professor
+998935655751
karimov.bahtiyor@yahoo.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.20472958

Annotatsiya. Turkiy xalqlar, ularning davlatlari, Turkiy sivilizatsiya uchun turkiy tillar rivoji masalalari hozirgi zamonda dolzarb va ahamiyatli masalalardir. Maqolada har bir lokal sivilizatsiya, jumladan Turkiy sivilizatsiya, o‘zining o‘rtalashtirilgan tilini yaratishi va bu tilda ushbu sivilizatsiya uchun ahamiyatli bo‘lgan ma’lumotlarni hamda global ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plashi, Jahon sivilizatsiyasi o‘zi uchun o‘rtalashtirilgan jahon tilini yaratishi taklif qilinmoqda. Turkiy tillar alifbosi masalasini yechish bo‘yicha “o‘rtabitik” yozuv tizimini yaratish taklif qilinmoqda.
Kalit so‘zlar: lokal sivilizatsiya, Turkiy sivilizatsiya, turkiy xalq, turkiy davlat, turkiy til, o‘rtaturk tili, o‘rtabitik

Аннотация. Вопросы развития тюркских языков для тюркских народов, их государств и Тюркской цивилизации являются актуальными и важными проблемами в наше время. В статье предлагается, чтобы каждая локальная цивилизация, в том числе и Тюркская цивилизация, создала свой усредненный язык и собирала на этом языке важную для этой цивилизации информацию и информацию глобального значения, а Мировая Цивилизация создала для себя усредненный мировой язык. Предлагается создать систему письма “ортабитик” для решения проблемы алфавита тюркских языков.
Ключевые слова: локальная цивилизация, тюркская цивилизация, тюркский народ, тюркское государство, тюркский язык, язык ортатюрк, ортабитик.

Аннотация. The issues of the development of the Turkic languages for the Turkic peoples, their states and the Turkic civilization are relevant and important problems in our time. The article proposes that each local civilization, including the Turkic civilization, should create its own averaged language and collect in this language important information for this civilization and information of global significance, and World Civilization should create an averaged world language for itself. It is proposed to create a writing system “ortabitik” to solve the problem of the alphabet of Turkic languages.
Key words: local civilization, Turkic civilization, Turkic people, Turkic state, Turkic language, language Ortaturk, ortabitik

2022 yil 11 noyabr kuni Samarqand shahrida O‘zbekiston Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlarining “Turkiy sivilizatsiyaning yangi davri: umumiy taraqqiyot va farovonlik sari” mavzusidagi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilish natijalari bo‘yicha Tashkilot doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammitining Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi. Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyati Turkiy sivilizatsiya hartomonlama rivojiga katta imkoniyatlar yaratmoqda, jumladan turkiy tillar rivoji uchun ham.

Turkiy xalqlar, ularning davlatlari, Turkiy sivilizatsiya Insoniyat sivilizatsiyasi tarkibidagi eng qadimiy va buyuk lokal sivilizatsiyalardan biridir. Turkiy xalqlarning tillari rivoji masalalari hozirgi zamonda dolzarb va ahamiyatli masalalardir.

Ming yillar davomida turkiy til yagona bo‘lib kelgan. Garchi yagona turkiyning shevalarga bo‘linishi o‘rta asrlarda boshlangan bo‘lsa-da, asosan XX asrda alohida milliy adabiy tillar darajasidagi tafovutlar vujudga keldi. Bu bo‘linib ketish jarayonida XX asrning birinchi choragida avj olgan turkiy dunyo birligi uchun harakat stalinchi qatag‘on orqali tor-mor qilinganligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Asrlar davomida tarixan shakllangan va “turkiy til” nomi bilan ma’lum bo‘lgan tilni turkiy xalqlar uchun umumiy adabiy til sifatida ishlatish sari harakat shu vahshiy qatag‘onlar natijasida tugatildi.

1926-1930 yillarda turkiy tillar uchun lotin alfaviti asosida ishlab chiqilgan va bir xillashtirilgan (unifikatsiya qilingan) alifboning o‘rniga 1937-1940 yillarda kiril alfaviti asosidagi, rus tili xususiyatlariga moslangan alifbo bir xillashtirishsiz alohida-alohida kiritildi.

Turkiy xalqlar o‘zaro yaqinlashishga intilish natijasida bir alifboga o‘tishsa yaxshi bo‘lar edi, lekin agar ularda bir necha alifbo saqlansa, o‘rtaturk tili ayni vaqtning o‘zida shu bir necha alifboda mavjud bo‘lishi mumkin. Albatta, so‘nggi holda ko‘proq iqtisodiy sarf-xarajatlar talab qilinadi, lekin bu turkiy xalqlarning o‘z taqdirlarini o‘zlari belgilab erkin rivojlanishiga va shunday yo‘l bilan o‘z ixtiyorlari bilan bir-birlariga yaqinlashishlariga xizmat qiladi [1, 2, 3].

Turkiy xalqlar boy milliy madaniyat va adabiyotga ega. Turkiy til jahondagi eng qadimgi adabiy tillar sirasiga kiradi va boy tarixga ega. Boshqa tillar singari, turkiy til tarixida gurkirab rivojlanish va inqiroz davrlari bo‘lgan. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijod qilib, turk mamlakatini "yakqalam" aylagan vaqt gurkirab rivojlanish davri cho‘qqilaridan biri edi. Yangi tarix davrida gurkirash endi avj olayotganida jinoyatkorona tugatildi. Yangi yuksalish davri bizning kunlarda boshlanishi mumkin, bu barchamizga bog‘liq va biz turkiy xalqlar istiqboli, ravnaqi uchun harakat qilishni Navoiy vasiyati, 20 yillar fidoyilari xotirasiga hurmat va xalqlarimiz oldidagi burchimiz, deb bilmog‘imiz lozim. O‘rtaturk tilining bu yo‘lda xizmat qilish imkoniyatlari nihoyatda katta [1, 2, 3].

Amaliy ishlarni boshlash uchun, o‘rtaturk tilini yaratish bo‘yicha xalqaro tadqiqot institutini (markazini) ta’sis etish maqsadga muvofiq bo‘lur edi. Bu markaz har bir turkiy davlatda o‘z bo‘linmasiga (filialiga) ega bo‘lib, ularning ishlarini muvofiqlashtirib turadi. Milliy davlatiga ega bo‘lmagan xalqlar tillarini tadqiq etish uchun markaz ekspeditsiyalar tashkil qilishi mumkin.

O‘rtaturk tili hozirgi va o‘tmishdagi barcha turkiy tillarga yaqii bo‘lar edi. Bu til turkiy xalqlar uchun qardosh, lekin betaraf, hech qaysi turkiy millatga ayrim imtiyozlar bermaydigan millatlararo muloqot tili bo‘lishi o‘rinli. Shuningdek, u butun turkiy dunyo uchun ahamiyat kasb etuvchi fan-texnika axboroti, adabiy va boshqa madaniy qadriyatlarning o‘zaro almashuv tili mavqeiga ega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir [1, 2, 3].

Har bir turkiy xalq vakili o‘z ona tilini bilish va uni o‘z yurtida ishlatish bilan birga, qo‘shimcha ravishda qardosh va yaqin bo‘lgan o‘rtaturk tilini qiynalmay, tez va oson o‘rganadi. Kelajakda o‘rtaturk tili har bir turkiy tilni jahon miqyosidagi tillar ta’siri ostida o‘ziga xosligini yo‘qotishdan muhofaza qiladi. Barcha turkiy tillarning boyligidan foydalangan o‘rtaturk tili har tomonlama rivojlangan jahon miqyosidagi tillar bilan teng bellashadigan, yuksak darajada rivojlangan til sifatida turkiy olam birligini yuqori pog‘onaga ko‘tarishda madad bo‘lur edi [1, 2, 3].

Erkinlikka erishib rivojlanayotgan millatning oykumenasi mukammalroq bo‘ladi. Millat uning oykumenasiga kiruvchi boshqa millatlar bilan erkin muloqotda bo‘lib, ular bilan hamkorlikdagi umumiy maqsadlarga yo‘naltirilgan faoliyati natijasida boshqa millatlar bilan yaqinlashadi, aks holda yaqinlasha olmaydi, yotsiraydi, ya’ni hozirgi davrda shakllanib bo‘lgan turkiy millatlar faqat erkin umumiy faoliyat natijasida yotsiramay, borgan sari yaqinlashishi mumkin, chunki bizlarning umumiy turkiy tilimizni, madaniyatimizni, ma’naviyatimizni,

dunyomizni rivojlantirish kabi ko‘plab fundamental umumiy maqsadlarimiz va porloq istiqbollarimiz bor [4, 5, 6, 7, 8].

Alisher Navoiy bundan 500-550 yil muqaddam o‘zining qahramonlarcha, daholarcha buyuk mehnati va ijodi bilan o‘sha davrdagi turkiy tamaddunning til birligining asosiy va strategik vazifasini turkiy tilning ko‘pchilikga tushunarli mezonlarini yaratib, hal qila oldi. Turkiy xalqlarning ko‘pchiligini, o‘sha davrdagi til va shevalarini, ayniqsa islomni qabul qilgan turkiy xalqlarni qamrab olgan “turkiy” tili edi. Bu natija uning butun hayotidagi eng muhim vazifalaridan biri edi. Uning idiolekti to‘rt asr davomida turkiy tamaddun taqdirida ulkan birlashtiruvchi rol o‘ynagan buyuk “turkiy” tilining mezoniga aylandi;

Ismoil Gasprali yaratgan “Terjiman” gazetasi (1883-1918) aksariyat turkiyzabonlar, ayniqsa, islom dinini qabul qilgan turkiy xalqlar vakillari uchun tushunarli tilda nashr etilgan. Bu gazetaning tili ma’lum darajada umumiy turkiy til bo‘lib, uni ayniqsa islom dinini qabul qilgan turkiy xalqlar vakillari yaxshi tushungan, garchi u chuvash tilini, saxa tilini, tuva, xakas, dolgan va ba’zi boshqa tillarni qamrab olmagan bo‘lsa-da. Ismoil Gasprali turkiy tamaddunning birligini saqlash va rivojlantirishning strategik va asosiy vazifasini quyidagicha ifodalagan: “Tilda, fikrda, ishda birlik!”. U tomonidan 100-150 yil avval belgilab berilgan va hal etilgan bu vazifa turkiy tilning yagona standartini yaratish orqali turkiy sivilizatsiya ijodkor ziyolilari kuchlarini yagona “Terjiman” gazetasi doirasida birlashtirish.

Turkistonda bir davlat va bir millat shakllantirish imkoniyati yuz yil avval bor edi, lekin bu imkoniyat Rossiya imperiyasi va SSSR faoliyati oqibatida qo‘ldan boy berildi va endi bu imkoniyat yo‘q. Hozirgi zamonda o‘zbek, qozoq, turkman, qirg‘iz, tojik, qoraqalpoq millatlari va ularning davlatlari obyektiv reallikda mavjud. Hozirgi zamonda o‘zbek (qozoq, turkman, qirg‘iz, tojik, qoraqalpoq) millatining chegarasi aniq – kim o‘zini men o‘zbek (qozoq, turkman, qirg‘iz, tojik, qoraqalpoq) millatiga mansubman, o‘zbek (qozoq, turkman, qirg‘iz, tojik, qoraqalpoq) millati mening millatim, uning milliy manfaatlari uchun kurashaman, o‘zbek (qozoq, turkman, qirg‘iz, tojik, qoraqalpoq) millatining barcha tashqi va ichki dushmanlari bilan jang qilishga tayyorman, degan barcha insonlar o‘zbek (qozoq, turkman, qirg‘iz, tojik, qoraqalpoq). O‘rug‘idan, qabilasidan, genetik ko‘rsatkichlaridan, kelib chiqishidan, tug‘ilgan joyidan, ijtimoiy statusi va boshqa aksidensiyalaridan qat’i nazar u o‘zbek (qozoq, turkman, qirg‘iz, tojik, qoraqalpoq). Ushbu millatlarning mavjudligini inkor qilmoqchi bo‘lgan shahs o‘z subyektiv istaklarini, orzularini, fantaziyalarini obyektiv borliqga kiritmoqchi bo‘ladi va Markaziy Osiyo taraqqiyotiga millatlararo ziddiyatlar kiritib, mintaqani falokat yo‘liga boshlaydi.

O‘sha davrdan beri turkiy va jahon sivilizatsiyasining 100 yildan ortiq jadal ijtimoiy taraqqiyoti o‘tdi. Bu jarayonlar davomida turkiy xalqlar va ularning tillari bir-biridan ancha uzoqlashdi va hozirda 30 ga yaqin mustaqil turkiy xalqlar va 30 ga yaqin mustaqil turkiy milliy tillar shakllangan va mavjud bo‘lib, ularning aksariyatini yozma adabiy tillar tashkil etadi. 6 turkiy milliy adabiy tillar BMT tomonidan tan olingan mustaqil davlatlarning davlat tillari hisoblanadi. Yana 14 ta turkiy milliy adabiy tillar o‘zlarining davlat tuzilmalarida davlat tillari hisoblanadi. Bunday yangi sharoitda turkiy sivilizatsiyaning birligini saqlash va rivojlantirishdek strategik va fundamental vazifani hal qilishning yangicha yo‘li kerak. Ishonamizki, Ismoil Gaspralining “Tilda, fikrda, ishda birlik!”, degan g‘oyasi hamon to‘g‘ri va biz birinchi navbatda turkiy tamaddunning til birligini saqlash va rivojlantirish uchun kurashishimiz kerak. O‘rtaturk tilini yaratishni ushbu til birligini ta’minlashning yangi zamonaviy usuli sifatida qarashimiz o‘rinlidir [4, 5, 6, 7, 8].

O‘rtaturk tilini barcha turkiy tillarning lingvistik qoidalarini o‘rtalashtirish usuli bilan yaratish va bu borada matematik va kompyuter lingvistika usullaridan foydalanish taklif qilinmoqda. Bu til turkiy tillarning tenghuquqligini, har bir turkiy til o‘z mintaqasida davlat tili sifatida saqlanishini va rivojini ta’minlar edi. O‘rtaturk tili turkiy halqlar orasida ihtiyoriy ravishda ishlatiladigan millatlararo muloqot tili, umumturkiy va umuminsoniy ahamiyatga ega

ma’lumotlar barcha turkiy millatlarning umumiy harakati bilan jamlanadigan til vazifalarini bajarishi mumkin bo‘ladi. Natijada Turkiy sivilizatsiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti e’tirof etadigan halqaro tillar qatoriga o‘rtaturk tili qo‘shilishiga erishishi mumkin bo‘lar edi.

G‘arb sivilizatsiyasi informatsion resurslarda, intellektual salohiyatda, inson kapitalida Sharq sivilizatsiyasidan o‘zib ketdi. G‘arb sivilizatsiyasining to‘rt tili (ingliz, rus, ispan, fransuz tillari) xalqaro tillar, jahon tillari deb e’tirof etilgan, Sharq sivilizatsiyasining faqat ikki tili (xitoy va arab tillari) xalqaro tillar, jaxon tillari deb e’tirof etilgan. G‘arb sivilizatsiyasining ingliz tili hozirgi zamonda global miqyosda ustuvor xalqaro til, global jahon tili maqomiga erishishga yaqinlashmoqda.

Buyuk mutafakkirlar merosining jahon ilm-fani va madaniyati tizimiga kirishida turli tillardagi asarlarning bir tilga tarjima qilinishi katta ahamiyat kasb etadi. VIII-XI asrlarda arab tiliga juda ko‘p asarlar tarjima qilindi va bu Sharq Uyg‘onish davrining shakllanishiga yordam berdi. XII asrda Yevropa lokal sivilizatsiyasining ilmiy va madaniy tili bo‘lgan lotin tiliga ko‘plab asarlarning tarjima qilinishi roman va german xalqlarining tez ilmiy va madaniy rivojlanishiga, oxir-oqibat Yevropada Uyg‘onish davriga, so‘ngra Yevropa sivilizatsiyasining boshqa lokal sivilizatsiyalar ustidan hukmronligiga olib keldi. XXI-asr axborot asriga aylanganidan buyon har bir lokal sivilizatsiya o‘zining o‘rtalashtirilgan tilini yarata olsa va bu tilda ushbu lokal sivilizatsiya uchun ahamiyatli bo‘lgan ma’lumotlarni hamda global ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni to‘play olsa, u tez rivojlanib, katta muvaffaqiyatlarga erisha olardi. Shuningdek, agar jahon sivilizatsiyasi o‘rtalashtirilgan jahon tilini yaratgan bo‘lsa, u o‘zining ijobiy konstruktiv rivojlanishiga va insoniyatning global muammolari hamkorlikda hal qilinishiga erishgan bo‘lar edi.

Turkiy tillar alifbosi masalasini, meni fikrimcha, kuyidagi usul bilan yechish maqsadga muvofiqdir [9, 10, 11, 12]:

Turkiy tillarda jami mavjud bo‘lgan 39 fonemaning har biriga bittadan 39 grafema kiritish taklif qilinmoqda. Bu grafemalar to‘rt yozuv tizimi asosida tuziladi: 1) lotin alifbosi asosida; 2) kirill alifbosi asosida; 3) arab alifbosi asosida; 4) o‘rxun-yenisey yozuvi asosida.

Har bir turkiy tilda tuzilgan matn shu alifbolarning birida tuziladi va barcha boshqa asosdagi alifbolardagi variantlari avtomatik transliteratsiya orqali hatosiz shakllantiriladi. Turkiy tilli inson matnni qaysi alifboda o‘qishni istasa o‘sha alifboda o‘qishga imkoni bo‘ladi va u matnni o‘zining ko‘nikmalariga mos alifboda o‘qiydi. Turkiy tillarning umumiy 39 fonemasidan har bir turkiy millat tilida muayyan miqdordagi fonemalar tizimi bo‘ladi. Ushbu turkiy til o‘z alifbosiga shu fonemalarga tegishli grafemalardan foydalanadi.

Har bir turkiy millatda o‘zining ustuvor alifbosi bo‘ladi va ushbu alifboda ta’lim tizimi tashkil qilinadi, kitoblar nashr qilinadi, ommaviy axborot vositalari ishlaydi, ish yuritish olib boriladi. Barcha ushbu ma’lumotlar elektron fayllar shaklida ham mavjud bo‘ladi va avtomatik tarzda tegishli boshqa alifbolarda ham zudlik bilan shakllantirilishi mumkin bo‘ladi.

Turkiy tillar alifbosi masalasining ushbu yechimini “o‘rtabitik” deb nomlasa yaxshi bo‘ladi deb o‘ylayman, chunki agar “o‘rtaalifbo” desak ko‘p turkiy tillarda alifbo degan so‘z yo‘q, agar “o‘rtaalfavit” desak turkiy tillarda qadimdan o‘zining tili va yozuvi bo‘lmagandek bo‘ladi.

O‘rtabitik barcha turkiy xalqlarga qulay bo‘ladi, chunki turkiy xalqlar hozirgi zamonda lotin, kirill va arab alfavitidan foydalanadi va ular o‘zi o‘rgangan, yaxshi ko‘nikmalari mavjud bo‘lgan alfavitda butun Turkiy sivilizatsiya informatsion fazosidagi ma’lumotlardan foydalanishga imkoniyati bo‘ladi. Ayni vaqtda Turkiy sivilizatsiya informatsion fazosidagi barcha ma’lumotlar qadimgi ajdodlarimiz o‘zi yaratgan o‘rxun-yenisey yozuvida ham mavjud bo‘ladi. O‘rtabitik tizimi barcha hozirgi zamonda mavjud va o‘tmishda mavjud bo‘lgan turkiy xalqlarning merosini, informatsion resurslarini optimal ravishda grafemik jihatdan birlashtirishga imkon berar edi.

Adabiyot:

1. Каримов Б.Р., Муталов Ш.Ш. Ўртатурк тили. Ташкент: Мехнат, 1992; 2. Karimov B.R., Moutalov Sh.Sh. Averaged languages: an attempt to solve the world language problem. Tashkent, 1993 (иккинчи нашр 2008 й., учинчи – 2019 й.);
2. Каримов Б.Р., Муталов Ш.Ш. Усредненные языки: попытка решения мировой языковой проблемы. Ташкент: Фан, 2008. (второе изд. в 2019 году);
3. Karimov B. The oikumenic concept of nation and problems of development of languages. Qarshi, 2003;
4. Каримов Б.Р. Ойкуменическая концепция нации и проблемы развития языков. Қарши: Насаф, 2003;
5. Каримов Б.Р. Ойкуменическая концепция нации и проблемы развития языков. Якутск, 2004;
6. Каримов Б.Р. Инсон, миллат, тил: тараққиёт муаммолари. Қарши: Насаф, 2003.
7. Каримов Б.Р. Туркий цивилизациянинг Жаҳон цивилизацияси тизимида ривожи". Т:. "FAN ZIYOSI" нашриёти, 2024 й, 166 бет.
8. Каримов Б.Р. Ўзбек тили истиқболлари ва учинчи Ренессанс пойдеворини яратиш масалалари // «Маънавий мерос ва III Ренессанс асосини яратиш масалалари: изланишлар, тадқиқотлар, истиқболлар» мавзуидаги халқаро конференция мақолалари тўплами. Самарқанд. «Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази» нашриёти, 2023. 233-248 б.
9. Каримов Б.Р. (2024). Умумий туркий алфавит бўйича таклифлар ва ўртабитик ёзув тизими. // Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 32(2), 150-154. https://scientific-jl.org/index.php/tal/article/view/1857
10. Karimov B.R. (2024). Umumiy turkiy alfavit bo'yicha takliflar va o'rtabitik yozuv tizimi. // Образование наука и инновационные идеи в мире, 56(4), 169-174. https://scientific-jl.org/index.php/obr/article/view/1904
11. Karimov B.R. (2024). Proposals for a common Turkic alphabet and the creation of a common Turkic writing system "Ortabitik". // Journal of New Century Innovations, 64(3), 136-144. https://scientific-jl.org/index.php/new/article/view/2610